
Effective factors in developing students' monologic speech

Muminova Oydin Qurbonovna
Associate Professor, the Department of Uzbek
Language and Literature,
Candidate of Philological Sciences,
Uzbekistan State World Languages University

Annotation *This article provides a comprehensive scientific and pedagogical analysis of the systematic organization of the literary reading process and the effectiveness of specialized pedagogical technologies in enhancing the monologic speech of higher education students. The relevance of the research is determined by the necessity of developing Uzbek language speech competencies in students not merely through theoretical knowledge, but by deeply understanding the essence of a literary work, perceiving it emotionally, and transferring the derived conclusions into live speech processes in the era of globalization. Modern educational standards require students not only to receive information but also to process it analytically and present it as independent thought. The instructor proposes a unique staged system for organizing literary reading: this process begins with providing preliminary information about the work and its author, continues with working on the active and passive vocabulary of the text, involves analyzing subtextual meanings through questioning, and concludes with the expression of a personal-critical attitude toward the work in the form of a monologue. The complex of interactive exercises presented in the article serves to systematically develop students' skills in articulating their thoughts in the state language in a consistent, logical, and creative manner, while also enriching their vocabulary. The obtained scientific and practical results indicate that the synthesis of literary analysis and speech activity significantly increases students' intrinsic motivation for language learning. This approach strengthens the skill of creating independent texts and presenting them before an audience – the highest and most complex stage of speech activity. The research findings can serve as a practical recommendation for improving lesson efficiency in the fields of philology and pedagogy in higher education.*

Keywords *Monologic speech, theater-lesson, literary reading, text creation technology, speech competence, syntactic variation, artistic analysis*

Talabalar monologik nutqini o'stirishning samarali omillari

Mo'minova Oydin Qurbonovna
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining monologik nutqini o'stirish va rivojlantirishda adabiy o'qish jarayonini tizimli tashkil etish hamda maxsus pedagogik texnologiyalarning samaradorligi ilmiy-pedagogik jihatdan atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi bugungi globallashuv davrida talabalarda o'zbek tilidagi nutqiy kompetensiyalarni shunchaki quruq nazariy bilimlar orqali emas, balki badiiy asar mohiyatini chuqur anglash, uni hissiy idrok etish va olingan xulosalarni jonli nutq jarayoniga ko'chirish orqali shakllantirish zarurati bilan*

belgilanadi. Zamonaviy ta'lim standartlari talabdan nafaqat axborotni qabul qilishni, balki uni tahliliy qayta ishlab, mustaqil fikr sifatida taqdim eta olishni talab etmoqda. O'qituvchi adabiy o'qishni tashkil etishda o'ziga xos bosqichli tizimni taklif etadi: bu jarayon asar va uning muallifi haqida dastlabki ma'lumot berishdan boshlanib, matndagi faol va passiv lug'atlar ustida ishlash, matnoshi yashirin ma'nolarini savollar orqali tahlil qilish hamda yakuniy bosqichda asarga nisbatan shaxsiy-tanqidiy munosabatni monolog shaklida ifodalashni o'z ichiga oladi. Maqolada keltirilgan interfaol mashqlar majmuasi talabalarning nafaqat lug'at boyligini oshirishga, balki o'z fikrlarini davlat tilida izchil, mantiqiy va ijodiy tarzda bayon etish malakasini tizimli shakllantirishga xizmat qiladi. Olingan ilmiy-amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, adabiy tahlil va nutqiy faoliyat sintezi talabalarning til o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini keskin oshiradi. Bu yondashuv talabalarda nutqiy faoliyatning eng yuqori va murakkab bosqichi hisoblangan – mustaqil matn yaratish va uni auditoriya oldida namoyish etish ko'nikmasini mustahkamlaydi.

Kalit so'zlar *Monologik nutq, teatr-dars, adabiy o'qish, matn yaratish texnologiyasi, nutqiy kompetensiya, sintaktik variatsiya, badiiy tahlil*

Эффективные факторы развития монологической речи студентов

Муминова Ойдин Курбоновна
*Доцент кафедры узбекского языка и
литературы,
Кандидат филологических наук,
Узбекский государственный университет
мировых языков*

Аннотация *В данной статье представлен всесторонний научно-педагогический анализ системной организации процесса литературного чтения и эффективности специальных педагогических технологий в развитии монологической речи студентов высших учебных заведений. Актуальность исследования обусловлена необходимостью формирования речевых компетенций студентов на узбекском языке не просто через теоретические знания, но и через глубокое понимание сути художественного произведения, его эмоциональное восприятие и перенос полученных выводов в процесс живой речи в эпоху глобализации. Современные образовательные стандарты требуют от студента не только получения информации, но и её аналитической переработки и представления в виде самостоятельного суждения. Преподаватель предлагает своеобразную поэтапную систему организации литературного чтения: этот процесс начинается с предоставления предварительных сведений о произведении и его авторе, продолжается работой над активным и пассивным словарем текста, анализом подтекстовых смыслов через вопросы и завершается выражением личностно-критического отношения к произведению в форме монолога. Представленный в статье комплекс интерактивных упражнений служит системному формированию навыков последовательного, логичного и творческого изложения своих мыслей на государственном языке, одновременно обогащая словарный запас студентов. Полученные научно-*

практические результаты свидетельствуют о том, что синтез литературного анализа и речевой деятельности значительно повышает внутреннюю мотивацию студентов к изучению языка. Данный подход укрепляет навык создания самостоятельных текстов и их публичного представления перед аудиторией – высшего и наиболее сложного этапа речевой деятельности. Выводы исследования могут служить практической рекомендацией по повышению эффективности занятий в области филологии и педагогики высшего образования.

Ключевые слова

Монологическая речь, театр-урок, литературное чтение, технология создания текста, речевая компетенция, синтаксическая вариация, художественный анализ

Kirish

Bugungi kunda ta'lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda o'zbek tili darslarining asosiy maqsadi talabani shunchaki lug'at boyligini oshirish emas, balki uni o'zbek tilida erkin fikrlash va muloqot qilishga o'rgatishdir. Ko'p hollarda o'qitish jarayoni tayyor matnlarni o'qish, tarjima qilish va savollarga javob berish bilan cheklanib qolmoqda. Biroq, talabani amaliy nutqiy ehtiyojini qondirish uchun matnni passiv qabul qilishdan faol matn yaratish bosqichiga o'tish zarur. O'zbek tili ta'limi mazmuni talabalarining nutqiy savodxonligini grammatikani o'qitish orqali emas, balki turmush va mehnat faoliyatidagi nutqiy mavzular doirasini yanada kengaytirgan hamda ixtisoslikka moslashtirgan tarzda o'zbekcha nutqni tinglash, so'zlash, o'qish va yozish amallarini uyg'unlashtirib o'rgatish bilan ajralib turadi. (Yo'ldoshev, Usmonov, 2008). O'zbek tili ta'limi jarayonida grammatik, leksik, orfoepik, uslubiy me'yorlarni nutqiy mavzularni belgilovchi matnlar asosida tushuntirish (Sayfullayeva, 2009) va natijada og'zaki va yozma nutqiy savodxonlikka erishish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Rus guruhlar talabalarining o'zbek tilidagi monologik nutqini izchillik va mantiqiylik, o'zaro bog'liqlik va kontekstuallik tamoyillari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltirilgan matn oldi, matn usti, matn osti topshiriqlar tizimi, shuningdek, ilmiy-badiiy adabiyotlarni o'qib

tushunish, turli mavzularda, ixtisoslik sohasida matn yaratish, matn ustida ishlash, matnni shakl va mazmun jihatdan yangilash, boshqa nutq uslubiga ko'chira olish kabi murakkab talablarni bajara olishi talabalarining tinglab tushunish ko'nikma-malakalarini rivojlantiradi. Talabalarining o'zbek tilida bog'lanishli matn tuza olish malakalarini rivojlantirishda adabiy o'qish, auditoriyadan tashqari o'qishlar, sayohat-dars, muzey-dars, teatr-dars kabi innovatsion usullardan samarali foydalanish talabalarining o'zbek tili imkoniyatlaridan qanchalik to'g'ri va keng foydalana bilishlariga, xususan, leksik va uslubiy imkoniyatlardan o'rinli foydalanishni qanchalik puxta o'zlashtirganliklariga bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi ta'limning yuqori bosqichida o'zbek tilidan tavsiya etilayotgan bilimlarning hayotiyliigi, kengligi va qiziqarliligi, tanlagan kasbi, mutaxassisligiga muvofiqiligi, o'qitish metodlari va usullarining zamonaviyligi, metodik vositalarning samarali qo'llanilishi orqali ta'minlanadi.

O'zbek tilini matn tahlili asosida o'qitishda rus guruhlar talabalarini tayyor matnlar topshiriqlari ustida ishlatishning o'zi yetarli emas, ularda, avvalo, so'zlardan so'z birikmalari, so'z birikmalaridan gaplar tuza olish, o'z nutqiy faoliyatiga ijodiy yondashgan holda sintaktik sinonimik variatsiyalardan foydalana olish ko'nikmalarini hosil qildirish kerak bo'ladi. Ta'lim boshqa tillarda olib

boriladigan guruh talabalarida o'zbekcha nutqiy ko'nikmalarni hosil qildirishda turli gap qurilmalarini o'rgatish, zarur bo'lgan grammatik bilimlarni, so'z va so'z birikmalarining bog'lanish qoidalarini nutqiy ehtiyoj, fikr ifodalash maqsadidan kelib chiqqan holda o'rgatish talab qilinadi. Bu o'rinda e'tiborni matn yaratishga qaratish lozim.

Matn yaratishning bosqichli tizimi talaba xotirasi, idroki, tafakkuri, tilning nutqda moddiylashuv, yaxlitlashuv, uyg'unlashuv jarayonini to'g'ri yo'lga solish, lug'at doirasini kengaytirish, og'zaki va yozma matn yaratishda izchillik, uzviylik, uzluksizlik tamoyillariga, gapda so'z tartibiga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Matn yaratishning bosqichli tizimi talabani mustaqil fikrlash, fikrni og'zaki va yozma holda izchil, jadal ifodalash ko'nikmalarini shakllantiruvchi til o'rganish mexanizmidir. U o'quvchida xususiydan umumiyga qarab borish: *so'z tarkibi* (tovush, bo'g'in, o'zak, qo'shimcha), *so'z birikmasi tarkibi* (hokim va tobe so'zlar), *gap tarkibi* (so'z, atama, so'z birikmasi, ibora va tasviriy ifodalar; *gap bo'laklari* (ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi hol), *matn tarkibi* (gap, xatboshi, murakkab sintaktik butunlik); matnning mazmuniy tugallik, shakllanganlik belgilari: *kirish, asosiy qism, xulosa*) haqida amaliy ko'nikmalar hosil qilish, ularni yozma nutqda qo'llashning ishonchli va kafolatli vositasidir (Ziyodova, 2007; 76-77).

Matn yaratishga yo'naltiruvchi lingvopsixologik o'quv topshiriqlari tizimini o'zbek tili ta'limiga keng joriy etish, talaba ongida so'z boyligini oshirish, qiyoslash, analiz va sintez qilish asosida mustaqil fikrlash, so'z tanlash va mustaqil fikr bildirish ehtiyojini hosil qilishga yordam beradi. (Matchonov, 2015). Shunday ko'nikma va malakalarni uzluksiz shakllantirish va rivojlantirish esa, talaba nutqiy mahoratining oshib borishi, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkur ko'lamining kengayishi hamda matn yaratish ko'pikmalarining avtomatlashuviga xizmat qiladi.

Monologik nutqni egallash ko'nikmalarini takomillashtirish fikrni mantiqiy rivojlantirib

borishni va monologik nutq hajmini kengaytirib borishni taqozo qiladi. Bu o'rinda talabalar mustaqil mulohaza yuritishni va o'z fikrini asoslashni bilishlari kerak bo'ladi. Monologik nutqqa o'rgatishda qo'llanadigan barcha ish turlari bir umumiy tizimga ega bo'lishi, ushbu topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalarning bilimlarida ilgoriga qarab o'sish sodir bo'layotganini his qilishlarini sezdirib borish zarur. Bu talabalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini va intilishlarini oshiradi. Oliy ta'limda auditoriyadan tashqari o'qish uchun rejalashtirilgan adabiy o'qish materiallarini (hikoya, rivoyat, qissa, doston, romandan parchalarni) mustaqil ish turi sifatida ajratilishi va talabalar tomonidan individual monologik so'zlab berish – hikoya qilish orqali qabul qilinishi ushbu mustaqil ish soatlaridan unumli foydalanishga olib keladi. Bu ayni paytda talabalarda monologik nutqning hikoya qilish turi ko'nikmasining shakllanishiga yordam beradi. Hikoya qilish monologik nutqning eng murakkab turlaridan biri bo'lib, unda voqealar o'rtasidagi sabab-natija munosabatlari orqali muayyan izchillikda rivojlanishi kuzatiladi (Salisheva, 2019; 64-68). Hikoyada voqealar rivoji odatda xronologik tartibda amalga oshiriladi. Adabiy o'qish materiallari rus guruhlar talabalarining lug'at boyligini oshirish, mamlakatimiz, o'zbek xalqining hayoti, madaniy-ma'naviy qarashlari, milliy xususiyatlari bilan chuqurroq tanishish imkoniyatini beruvchi vositadir. Bizningcha, aynan yuqori ta'lim bosqichlarida adabiy o'qishni kuchaytirish, o'quvchi-talabalarni adabiy asarlarni asliyatida mustaqil o'qishlarini tashkil etish talabalarning monologik nutq malakalarini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi va talabalarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi:

- o'qilgan adabiy asarlarni qayta hikoyalash orqali rus guruhlar talabalarining so'z boyligini oshirish va monologik nutqini rivojlantirish;
- asarlardan parchalarni ifodali o'qitish, she'rlarni yod aytirish orqali rus guruhlar

talabalarining o'zbekcha talaffuzini yaxshilash;

- asar matnidani mavzuga oid nutqiy konstruksiyalarni aniqlash va tahlil qilish orqali egallangan bilimlarni mustahkamlash va ularning amaliy qo'llanishini o'rgatish.

Adabiy o'qishni tashkil etishda tizimli topshiriqlardan foydalanish, ya'ni adabiy o'qish uchun berilgan asar haqida muayyan ma'lumotlar berish orqali mazkur asarni

o'qishga tayyorlash, lug'at ustida ishlash orqali asarni tushunib qabul qilish, asar bo'yicha berilgan matnosti savol va topshiriqlarga e'tibor qaratish orqali asar mohiyatini anglash va undan xulosa chiqarish, ilgari surilgan g'oyaga shaxsiy munosabat bildirish, ushbu aytilganlarni o'zbek tilida ifodalash malakasini shakllantirib borish orqali talabalarining monologik nutqini o'stirib borish malakalari hosil qilib boriladi. Masalan:

1-topshiriq. *"Nurli cho'qqilar" hikoyasidagi Zuhraga baho bering.*

Zuhraning xatti-harakatlari	Sabablar	Mening munosabatim

2-topshiriq. *Savollar bo'yicha ishleng.*

1. Asar nega "Nurli cho'qqilar" deb nomlanganligini izohlang.
2. Asardagi muammo nimadan iborat va bu muammo qanday yechim topdi?
3. Asar qahramonlarini qiyoslang.
4. Asar qahramonlari o'zlarini qanday his qilishganini tasvirlab bering.
5. Asarda qo'llanilgan iboralarni topib, maqsadini tushuntirib bering.
6. Asardagi tabiat (ob-havo) manzarasining nima uchun ishlatilganligini tushuntiring.
7. Yozuvchining bu asarni yozishdan maqsadi nima deb o'ylaysiz?
8. Zuhraning ijarada turgan xonasini tasvirlang. Bundan nima xulosaga kelish mumkin?
9. Asardagi muammoga boshqacha yechim toping.
10. Asardagi bir voqea o'zgarsa, boshqa voqealar qanday rivojlangan bo'lardi?
11. Asardagi voqeaga o'xshash voqea sizning hayotingizda sodir bo'lganmi?
12. Siz Zuhraning o'rnida bo'lganingizda nima qilardingiz?

3-topshiriq. *Asar qahramonidan (muallifidan) intervyu oling.*

4-topshiriq. *Asarga boshqacha yakun yozing. Nega aynan shunday yakunlaganingizni izohlang.*

5-topshiriq. *Tasavvur qiling, siz asar qahramonlaridan birisiz. Hayotingizdagi bir kunni tasvirlab kundalik yozing.*

Mustaqil fikrlashga undovchi matnni kengaytirish bo'yicha topshiriqlar ham berish mumkin. Talabalar tuzgan gaplari va birikmalarini qo'shib, tayanch matnni kengaytirilgan shaklda yozishi, ayni paytda fikrga munosabat bildiruvchi so'zlar va birikmalar yordamida matnni xulosalashi, bunda maqol va aforizmlardan, ko'chirma yoki o'zlashtirma gaplardan foydalanishlari kerak bo'ladi. Quyida shu yo'nalishda berilgan topshiriq va uning bajarilishi namunasini keltiramiz:

Kichik matnni o'qing va quyida berilgan topshiriqlar asosida bosqichma-bosqich kengaytirib matn tuzing.

1. Matndagi gaplarni obyekt bildiruvchi bo'laklar bilan to'ldiring. Ushbu bo'laklarga savol bering, grammatik shaklini tushuntiring.
2. Matnni ko'makchili konstruksiyalar bilan to'ldiring. Bunda quyidagi

ko'makchilardan foydalaning: bilan, uchun, kabi, singari, tomon, yonida, atrofida, tepasida, orqasida, o'rtasida, qoshida.

3. Matndagi gaplarga belgi bildiruvchi so'zlar qo'shib, matnni kengaytiring. So'ngra sifatlovchili, qaratqichli va izohlovchili birikmalarni 3 guruhga ajratib yozing.
4. Matndagi har bir ish-harakatning qaytarzda bajarilishini bildiruvchi so'zlar yoki birikmalarni qo'shib, holli birikmalar tuzing. Ularga savol bering, bog'lanishi va ifodalanishini tushuntiring.
5. Matnga o'rin va payt ma'nosini ifodalovchi so'zlar qo'shib, matnni kengaytiring, ularga savol bering va ifodalanishini tushuntiring.
6. Matnga sabab va maqsad ma'nosini ifodalovchi so'zlar qo'shib, matnni kengaytiring, ularga savol bering va ifodalanishini tushuntiring.
7. Matnga shart va to'siqsizlik ma'nosini ifodalovchi so'zlar qo'shib, matnni kengaytiring, ularga savol bering va ifodalanishini tushuntiring.
8. Matnga o'xshatish va qiyoslash ma'nosini ifodalovchi so'zlar qo'shib, matnni kengaytiring, ularga savol bering va ifodalanishini tushuntiring.
9. Tuzgan gaplaringiz va birikmalaringiz hamda fikrga munosabatni ifodalovchi so'zlar, birikmalar qo'shib, matnni kengaytirib yozing.
10. Matnga ko'chirma yoki o'zlashtirma gaplar qo'shing va xulosalang.

Shuni ta'kidlash kerakki, bunday tizimlashtirilgan topshiriqlar talabalarning quyi bosqichlarda o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini turli vaziyatlarda amalda qo'llay olish malakalarini shakllantirishga yordam beradi hamda ularning bog'lanishli monologik nutqini rivojlantiribgina qolmay, mustaqil fikrlash faoliyatlarini ham o'stiradi. Matn ustida ishlashdan ko'zlanadigan asosiy maqsad talabaga mukammal matn haqida atroflicha tushuncha berish, undagi ijodiy tafakkur mexanizmini harakatga keltirish, aniq yo'nalishda, izchil, mantiqli mushohada yuritishga, fikr mahsulini yozma ravishda to'g'ri ravon ifodalashga tayyorlashdan iborat. Ushbu faoliyat talabalarni matn turlarini farqlashga o'rgatish, matndagi gaplarni analiz va sintez qilish, imloviy va uslubiy nuqsonlarni farqlash va bartaraf qilish, matn mazmunini ochib beradigan, badiiy bo'yoqdor so'zlarni guruhlash va tanlash, fikrni aniq, izchil va ravon ifodalash, matndan to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmalarining shakllantirilishi va mustahkamlanishini ta'minlaydi.

O'zbek tilini matn tahlili asosida o'qitishda talabalarning ijodiy nutqiy faoliyatini rag'batlantirish kutilgan natijani beradi. Tayyor matnlar faqatgina namuna vazifasini o'tashi, talabaning asosiy faoliyati esa sintaktik qurilmalarni mustaqil bog'lash va o'z fikrini variativ ifodalash ko'nikmasini hosil qilishga qaratilishi lozim. Bu yondashuv talabalarning nafaqat grammatik savodxonligini, balki kommunikativ kompetensiyasini ham oshiradi.

References:

1. Yo'ldoshev, J. G., & Usmonov, S. A. (2008). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish*. Fan va texnologiya.
2. Sayfullayeva, R., et al. (2009). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Fan va texnologiya.
3. Ziyodova, T. (2007). *Matn yaratish texnologiyasi*. Fan.
4. Matchonov, S. (2015). *Adabiy ta'lim metodikasi*. Noshir.
5. Salisheva, Z. I. (2019). *O'zbek tili mashg'ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarida)* (Doctoral dissertation). Toshkent.

6. Ishmuhamedov, R., & Yuldashev, M. (2013). *Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar*. Toshkent.
7. Yo'ldoshev, R. (2008). Uzluksiz o'zbek tili ta'limida yondashuvning tatbiqiga doir. *Uzluksiz ta'lim*, (5), 20–24.